

**SANOAT EKSPORTIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA MAVJUD
MUAMMOLAR TAHLILI***Xakimov Asadbek Sultonbek o'g'li**ADTI talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat eksportining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy, institutsional va tashqi omillar tahlil qilingan. Xususan, mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi, logistika infratuzilmasi, investitsiyalar, innovatsion texnologiyalar hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralarning eksport hajmiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, sanoat korxonalarining eksport faoliyatida uchrayotgan muammolar, jumladan, transport-logistika xarajatlarining yuqoriligi, xalqaro standartlarga moslashishdagi qiyinchiliklar, moliyaviy resurslar cheklanganligi va tashqi bozorlardagi raqobatning kuchayishi tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari asosida sanoat eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat eksporti, eksport salohiyati, eksport faoliyati, raqobatbardoshlik, logistika, investitsiyalar, innovatsiyalar, tashqi savdo, sanoat korxonalari, eksportni rivojlantirish.

Аннотация: В данной статье проанализированы основные экономические, институциональные и внешние факторы, влияющие на развитие промышленного экспорта. Исследовано воздействие качества продукции, эффективности производства, логистической инфраструктуры, инвестиций, инновационных технологий и мер государственной поддержки на объемы экспорта. Также рассмотрены существующие проблемы экспортной деятельности промышленных предприятий, включая высокие транспортно-логистические затраты, сложности адаптации к международным стандартам, ограниченность финансовых ресурсов и усиление конкуренции на внешних рынках. По результатам исследования разработаны практические предложения и рекомендации по повышению экспортного потенциала промышленности.

Ключевые слова: промышленный экспорт, экспортный потенциал, экспортная деятельность, конкурентоспособность, логистика, инвестиции, инновации, внешняя торговля, промышленные предприятия, развитие экспорта.

Abstract: This article analyzes the main economic, institutional, and external factors affecting the development of industrial exports. Particular attention is paid to the impact of product quality, production efficiency, logistics infrastructure, investments, innovative technologies, and government support measures on export performance. The study also examines the key challenges faced by industrial enterprises in export activities, including high transportation and logistics costs,

difficulties in complying with international standards, limited financial resources, and increasing competition in foreign markets. Based on the research findings, practical recommendations are proposed to enhance industrial export potential and improve export efficiency.

Keywords: industrial export, export potential, export activity, competitiveness, logistics, investment, innovation, foreign trade, industrial enterprises, export development.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat eksporti milliy va hududiy iqtisodiyot barqaror o‘shirishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Eksport faoliyati nafaqat korxonalar daromadlilikini oshiradi, balki ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini xalqaro talablarga moslashtirish hamda hududning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois sanoat eksportining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganish va mavjud muammolarni aniqlash ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Hozirgi sharoitda eksport ko‘rsatkichlariga ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik daraja, logistika infratuzilmasi, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, tashqi bozor kon’yunkturasi, korxonalarining marketing strategiyasi kabi ko‘plab omillar kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olmagan holda eksport salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish qiyin. Ayniqsa, hududlar kesimida sanoat eksportining notekis rivojlanishi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilmayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, sanoat eksporti jarayonida qator tizimli muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, ayrim korxonalarda mahsulotlarning xalqaro standartlarga moslashuv darajasi yetarli emasligi, logistika va transport xarajatlarining yuqoriligi, eksport bozorlarini diversifikatsiya qilishdagi qiyinchiliklar, zamonaviy marketing va brending faoliyatining sustligi, shuningdek, moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish darajasining pastligi eksport samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat sanoat eksportini chuqur iqtisodiy tahlil qilish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mazkur paragrafning asosiy maqsadi — sanoat eksportiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni tizimli ravishda yoritish, ularning iqtisodiy mazmunini ochib berish hamda eksport faoliyatida mavjud muammolarni tahliliy jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu tahlil keyingi bo‘limlarda sanoat eksportini rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik as 2.1. Ichki omillar tahlili

Ichki omillar sanoat eksportining barqaror rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Xususan, ishlab chiqarishning texnik darajasi va innovatsion faoliyat eksport hajmining oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan

korxonalar yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

1-jadval

Ichki omillarning eksportga ta‘sir darajasi

Omil	Ta‘sir darajasi	Izoh
Texnologik daraja	Yuqori	Zamonaviy texnologiyalar eksport hajmini oshiradi
Innovatsiya	Yuqori	Yangi mahsulotlar raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi
Kadrlar salohiyati	O‘rta	Malaka yetishmasligi eksportni cheklaydi
Investitsiyalar	Yuqori	Kapital qo‘yilmalar ishlab chiqarishni kengaytiradi

Tashqi omillar global iqtisodiy muhit bilan bog‘liq bo‘lib, ular eksport faoliyatining samaradorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, jahon bozorida talab va valyuta kursining o‘zgarishi eksport hajmiga bevosita ta‘sir etadi.

2-jadval

Tashqi omillarning eksportga ta‘siri

Omil	Ta‘sir yo‘nalishi	Natija
Jahon bozori talabi	Ijobiy/salbiy	Talab oshsa eksport ortadi
Valyuta kursi	Ikkilamchi	Kurs pasayishi eksportni rag‘batlantiradi
Savdo siyosati	Cheklovchi	Bojxona to‘siqlari eksportni kamaytiradi
Logistika	Muhim	Transport xarajatlari eksport narxiga ta‘sir qiladi

Sanoat eksportining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar tizimli xususiyatga ega bo‘lib, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

3-jadval

Sanoat eksportidagi asosiy muammolar

№	Muammo turi	Tavsifi	Ta‘siri
1	Texnologik muammolar	Eskirgan uskunalar	Mahsulot sifati pasayadi
2	Moliyaviy muammolar	Kredit resurslarining cheklanganligi	Investitsiya kamayadi
3	Logistik muammolar	Transport infratuzilmasining rivojlanmaganligi	Yetkazib berish qimmatlashadi

4	Institutsional muammolar	Byurokratik to‘siqlar	Eksport jarayoni murakkablashadi
5	Marketing muammolari	Xalqaro bozorlarga chiqish strategiyasining yetishmasligi	Eksport hajmi cheklanadi

Yuqoridagi muammolarni kompleks tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, sanoat eksportining rivojlanishi ko‘proq ichki tizimli kamchiliklar bilan bog‘liq. Ayniqsa, texnologik eskirish va logistika tizimidagi kamchiliklar eksport salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

4-jadval

Muammolarni ustuvorlik darajasi bo‘yicha baholash

Muammo	Dolzarblik darajasi	Hal etish zaruriyati
Texnologik eskirish	Yuqori	Zudlik bilan
Logistika muammolari	Yuqori	Strategik
Moliyaviy cheklovlar	O‘rta	Bosqichma-bosqich
Marketing yetishmasligi	O‘rta	Rivojlantirish zarur
Byurokratik to‘siqlar	Yuqori	Islohot talab etadi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sanoat eksportining samaradorligi ko‘p jihatdan ishlab chiqarishning texnologik darajasi, innovatsion faoliyat va tashqi iqtisodiy muhitga bog‘liq. Shu bilan birga, mavjud muammolar — xususan, logistika, moliyalashtirish va institutsional to‘siqlar — eksport salohiyatining to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Natijada, sanoat eksportini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv, ya’ni texnologik modernizatsiya, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va eksportni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Globalashuv jarayonlarining afzalliklaridan unumli foydalanish orqali sanoat mahsulotlari eksportini yanada ko‘paytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, birgina 2018 yil noyabrida boshlangan «AQSH-Xitoy savdo urushi» natijasida Xitoyning AQSHdan importi cheklanishi va pandemik inqiroz sharoitida mamlakatda iqtisodiy faollikning pasayishi kuzatildi. Buni inobatga olgan holda Xitoy bozori uchun AQSH yetkazib berayotgan importi cheklangan tovar va xizmatlar o‘rnini egallashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. 2020 yil yakuniga ko‘ra mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasida eng yuqori, ya’ni 17,7 % ulush Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi. 2020 yilda ushbu mamlakatga eksportimiz 1,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi. Eksportning asosiy qismi tabiiy gaz, ip-kalava, paxta tolasi, kimyoviy mahsulotlar va xizmatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. SHuningdek, Xitoydagi tanglik holati mamlakatimiz iqtisodiyotiga import qilayotgan mashina va uskunalar (importning 51 %i) hajmining qisqarishi bilan bog‘liq sanoat mahsulotlari eksportiga

quyidagi xavf-xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin: – mashina va uskunalar, butlovchi qismlar hamda xom ashyo mahsulotlari importining kamayishi sanoat ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Trikotaj, poyafzal, sintetik tolalar, mebel furniturasini va polietilen xom ashyosining asosiy qismi, shu bilan birga yuqorida aytib o'tganimizdek, import qilinayotgan mashina va uskunalarining yarmidan ko'prog'i Xitoydan olib kelinadi; – texnologik uskunalarning importidagi muammolar esa asosiy kapitalga investitsiyalar o'sishining pasayishiga yoki kamayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu mahsulotlar importining 36,3 % Xitoydan amalga oshiriladi; – Xitoydagi ichki talabning pasayishi natijasida ayrim mahsulotlarimiz eksportining kamayishi. Masalan, 2019 yilda tabiiy gaz eksportining 40,6 %i ushbu mamlakatga bo'lgan tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda 2019 yilga nisbatan ushbu mahsulot umumiy eksporti 79,2 %ga kamaygan. Yuqoridagi sharoitda, boshqa tashqi savdo hamkorlarini qidirib topish muayyan vaqt talab qilishi yoki umuman imkonsiz ham bo'lishi mumkin. Umuman olganda Xitoy bilan bog'liq bunday holat 2021 yildagi YaIM o'sish sur'atini 0,2-0,3 % bandga pasaytirishi mumkin¹⁸. Xitoydagi pandemik inqiroz bilan bog'liq vaziyat asosiy savdo hamkorlarimiz iqtisodiyotidagi holatning yomonlashuvi orqali ham bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, energiya manbalarining eng asosiy importyori bo'lgan Xitoyda neftga bo'lgan talabning pasayishi natijasida, jahonda neft narxi sezilarli darajada arzonlashdi. Bu o'z navbatida Rossiya va Qozog'iston kabi neft eksport qiluvchi mamlakatlarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada ushbu mamlakatlardagi iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi va valyuta devalvatsiyasi bilan bog'liq holat tovar va xizmatlarimizga bo'lgan tashqi talab va pul o'tkazmalari hajmining kamayishi bilan bog'liq bo'lgan ichki talabning pasayishiga olib keldi. Tashqi savdo hamkorlarimiz iqtisodiyoti va jahon moliya bozoridagi bunday tanglik vaziyatida iqtisodiyomizga kirib keladigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Viloyat sanoat mahsulotlari eksportining rivojlanishiga bir qator bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab o'tish mumkin (2.6-rasm). Bevosita ta'sir etuvchi omillar: Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – muayyan bir vaqt, asosan bir yil davomida ishlab chiqarilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor bahosidagi qiymati hisoblanib, uning asosiy qismini sanoat mahsulotlari tashkil qiladi. Farg'ona viloyati YaHMning qariyb 60,0 %ini sanoat ishlab chiqarish tashkil qiladi. Eksport tovar va xizmatlarning respublika bojxona hududidan olib chiqilishi bo'lib, uning tarkibida sanoat tovarlari 2020 yilda Respublika jami eksportida 19,2 %ni qayd etgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi shak-shubhasiz sanoat mahsulotlari eksportiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir. Jalb qilinayotgan investitsiyalar pirovard sanoat ishlab chiqarish hajmining ortishiga ta'sir qilish bilan birga xorijiy investitsiyalar asosan eksportbop sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga yo'naltiriladi. Aholi pul daromadlarining o'sib borishi harid qobiliyati va real talabning

ortishi hisobiga sanoat ishlab chiqarishni ko'paytirib, eksport xajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri bu – kadrlar masalasidir. Oddiy iqtisodchi yoki buxgalter emas «eksportchi-mutaxassis» zarur. «Eksportchi-mutaxassis» – iqtisodchi, marketolog, diplomat, yurist, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi hamda bir necha xorijiy tillarni biladigan kadr bo'lishi lozim. Chunki, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanish yo'li, huquqiy va diplomatik munosabatlari, diniy qadriyatlari asosida shakllangan madaniy va ma'naviy xususiyatlari, shuningdek so'zlashish tiliga egadir. Sanoat mahsulotlari eksportining barqaror o'sishi har tomonlama hududiy sanoat ishlab chiqarishning raqobatbardoshligiga bog'liq. Kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida raqobatbardoshlik turli yo'nalishlardagi ko'rsatkichlarni o'ziga qamrab olgan. Raqobatbardoshlik hudud yoki mamlakatning tarkibiy o'zgarish sur'ati va sifati, rivojlanish darajasi va ushbu o'zgarishlarning jamiyat farovonligiga qo'shadigan hissasini belgilaydi. Sanoat tarmog'ining farovonlikka qo'shadigan hissasi uning mahsulot ishlab chiqarish, ushbu mahsulotlarni jahon bozorlarida ayirboshlash va kompleks ishlab jarayonlarida ixtisoslashishiga bog'liq. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun an'anaviy bo'lgan xom ashyo eksportidan voz kechish, yuqori sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni jahon bozoriga yetkazib berish hozirgi globalashuv jarayonlarida jon saqlab qolish hamda yuqori samaradorligiga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Hudud eksporti tarkibida tayyor mahsulotlar ulushining ortib borishi sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi hisobiga amalga oshadi. Bilvosita ta'sir etuvchi omillar: Hududiy joylashuv, mavjud resurslar miqdori, sifati, infratuzilmalar, ekologik vaziyat va iqlim ishlab chiqarish imkoniyatlarini belgilab beruvchi bilvosita omillarning eng yetakchi element hisoblanadi. Davlat bosh islohotchi sifatida barcha munosabatlarning asosiy sub'ekti sifatida bevosita va bilvosita ishtirok etadi. Davlat sanoat ishlab chiqarish va uning jahon bozorida ustunligini ta'minlashda amalga oshiradigan sanoat, tashqi savdo, bojxona va davlat-xususiy sherikchilik siyosatiga uzviy bog'liqdir. Tashqi savdo va bojxona siyosati bojxona munosabatlarini nazarda tutuvchi mexanizmlar yaratilganligiga qaramasdan takomillashtirish, zamon talablariga moslashtirish zarur. SHu o'rinda eng asosiy urg'u «elektron bojxona»dan «raqamli bojxona» mexanizmlarini samarali joriy etishga qaratilgan. Ushbu tizimning yo'lga qo'yilishi eksportga sarflanadigan rasmiylashtirish vaqtini 5 barobarga kamaytirishni ko'zda tutadi. Iqtisodiy muhit o'z ichiga: bozor mexanizmi, institutsional rivojlanish, tarkibiy o'zgarishlar va tashqi bozorga chiqishdagi to'siqlar kabilarni olib, ular sanoat mahsulotlari eksportiga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar jumlasidandir. Har bir mahsulot talab, taklif, narx va raqobat singari bozor mexanizmiga bo'ysunadi. Tashqi bozorlardagi ushbu mexanizmlarning xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish va bozordagi faoliyat istiqbollari belgilash taqozo etiladi. Bu jarayonga xizmat qiluvchi kuchli institutsional asos bo'lsagina

bozordagi raqobatda jon saqlab qolish imkoniyati yaratiladi. Hududiy tarkibiy o'zgarish siyosati, ustuvor sanoat tarmoqlarini belgilab olishni nazarda tutib, eksport salohiyatiga ijobiy turtki beradi. Tashqi bozorga chiqishdagi to'siqlar iqtisodiy (tarifli) va ma'muriy (notarif) ko'rinishlarda namoyon bo'lib, eksport faoliyatini erkin olib borishga to'sqinlik qiladi. Xalqaro muhit haqida gap ketganda birinchi navbatda har bir mamlakatning geografik joylashuvi, iqlimi, rel'efi, mavjud tabiiy resurslari va intellektual salohiyati belgilab beradigan xalqaro mehnat taqsimoti gavdalanadi. Xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiya aloqalarining rivojlanishi xalqaro savdo munosabatlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Ikki va undan ortiq mamlakatlar tomonidan o'zaro tovar almashinuvi jarayonlari davlat, mintaqa va yuqori darajada xalqaro standartlar (ISO, CE va b.) asosida amal qiladi. Xalqaro raqobatda ustunlik mamlakat tovarlarining jahonda talabgir bo'lishini belgilab beradi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va a'zolik orqali mamlakat keng ko'lamli savdo ustunliklaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. SHu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, mamlakatimiz 2021 yil 10 apreldan boshlab Yevropa Ittifoqi(EI)ning Preferentsiyalar bosh tizimi – GSP+(Generalized System of Preferences) doirasida benefitsiar mamlakat sifatida qabul qilindi. Bu mamlakatimizga GSP+ tizimidagi mahsulotlarni Yelga imtiyozli olib kirish orqali o'z eksport salohiyatini yanada kengaytirish va qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. **“2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”**. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son Farmoni. **“O'zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida**. – Toshkent, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasining **“Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi Qonuni**. O'RQ–285-II-son, 2000-yil 26-may (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
4. The World Bank Open Knowledge Repository. World Bank. **Exports Competitiveness and Industrial Development: Global Experience and Policy Approaches**. Washington, D.C., 2023.
5. UNCTAD Publications. United Nations Conference on Trade and Development. **Trade and Development Report 2024**. Geneva: UNCTAD, 2024.
6. World Trade Organization (WTO) Publications. World Trade Organization. **World Trade Statistical Review 2024**. Geneva: WTO, 2024.